

FARG'ONA VILOYATIDA EKOLOGIK VA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

PROSPECTS FOR DEVELOPING ECOLOGICAL AND PILGRIMAGE TOURISM IN FERGANA REGION

Mamatisakov Jaxongirmirzo Jamoliddin o'g'li

Farg'ona davlat universiteti, p.f.f.d (PhD)

Mamatisakov Jaxongirmirzo Jamoliddin o'g'li

Fergana State University,

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences

Annotatsiya

Ushbu maqolada Farg'ona viloyatining ekologik va ziyorat turizmi obyektlari hamda ularning turistik imkoniyatlari tahlil qilingan. Ekologik va ziyorat turizmini rivojlantirish uchun ulkan salohiyat hamda boy tabiiy resurslari, betakror tog'li hududlari, shifobaxsh buloqlari ekoturizmni shakllantirish uchun asos bo'lsa tarixiy-madaniy meros va muqaddas qadamjolar ziyorat turizmining kelajagini belgilaydi. Turistik infratuzilmani yaxshilash, yangi yo'nalishlarni ishlab chiqish orqali xududning iqtisodiy imkoniyatlarini yanada orttirish mumkin.

Annotation

This article analyzes the ecological and pilgrimage tourism objects of Fergana region and their tourist potential. The huge potential for the development of ecological and pilgrimage tourism and its rich natural resources, unique mountainous areas, healing springs are the basis for the formation of ecotourism, while the historical and cultural heritage and sacred sites determine the future of pilgrimage tourism. The economic potential of the region can be further increased by improving the tourist infrastructure and developing new directions.

Kalit so'zlar: *ekoturizm, ziyorat turizmi, iqlim sharoiti, turistik marshrut, rekreatsiya, karst, rekreatsion imkoniyat*

Keywords: *ecotourism, pilgrimage tourism, climatic conditions, tourist route, recreation, karst, recreational opportunities*

Kirish. Tabiatda uchraydigan tabiiy resurslar joyning landshaft – iqlim sharoiti, mineral suvi, o'simlik dunyosi va boshqa ko'rsatkichlari hududning rekreatsion imkoniyatlarini belgilab beradi. Inson doimo tabiiy muhit – quyosh radiatsiyasi, erning magnetizmi, meteorologik elementlari ta'sirida bo'ladi. Iqlim sharoiti rekreatsiyani rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Farg'ona viloyati tabiati, xususan iqlimi nafaqat O'zbekistonda, balki O'rta Osiyoda ham alohida ahamiyatga ega. Xududningning tog'li joylari, daryo vodiylarining ionlarga boy bo'lgan havosining rekreatsion imkoniyatlari bir muncha yuqoridir. Shohimardon, So'x kabi tog' daryolarining havzalaridagi havo ionlarga juda boy hisoblanadi. Manfiy ionlar inson sog'lig'iga shifobaxsh ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa yurak-tomir, asab sistemasiga ijobiy ta'sir etib, tananing funksional holatini yaxshilaydi. Tog' rekreatsiyasi vodiydagi sanatoriy-kurort sohasini rivojlantiruvchi omillardan hisoblanadi. Janubda Oloy tog' tizmalari bilan atrofi o'ralgan bu xududda 50 dan ortiq mineral suv konlari va shifobaxsh balchiqlar aniqlangan. Hudud aholisi o'zlari yashab turgan joylardagi shifobaxsh suv, qumlar, balchiqlar bilan davolanishi mumkin bo'lgan joylarni yaxshi biladilar.

Mahalliy aholi bunday buloqlarni shifobaxshligi uchun muqaddaslashtirilgan va avliyolar nomi bilan atashadi. Mazkur mineral manbalar viloyatning ko'p xududlarida uchrab turadi. Kimyoviy tarkibi, minerallashishi hamda rekreatsion ahamiyati bo'yicha bu suvlar chet eldagi mashhur mineral suvlardan aslo qolishmaydi. Quyida Farg'ona viloyatida mavjud ekologik va ziyorat turizmi obyektlari hamda ularning turistik imkoniyatlari keltirib o'tilgan:

Chimyon sanatoriysi – tog' etaklarida Markaziy Farg'onaning janubiy kismida, dengiz satxidan 450 m balandlikda Shohimardonsoy daryosining adir

oralig'i irmoqlari bo'yida joylashgan bu maskan mineral suv manbaiga ega hisoblanadi. Dam olish maskani Farg'onadan 32 km masofada joylashgan. Asosiy davolash maskani mineral suvlar va shifobaxsh balchiklar bo'lib, bu maskanda 1 – 2 kishilik yaxshi jixozlangan xonalar mavjud.

Qiziltepa sanatoriysi – Farg'ona viloyatining markaziy qismida, Farg'ona shaxridan uncha uzoq bo'lmagan hududda joylashgan. Sayyohlar dam olish jarayonida Qo'qon va Marg'ilondagi tarixiy obidalar va xunarmandchilik maxsulotlarini tomosha qilishga hamda Shohimardon, So'x kabi go'zal tabiat maskanlariga ekskursiyalar uyushtirishga muyassar bo'ladilar.

Kampirqoq noyob topilmasi - Beshariq tumanida G'uzon tog'ining janubi-g'arbiy davomi bo'lgan Kampirqoq tog'ining janubiy yonbag'rida joylashgan. Unda yura davrining 160-180 mln yoshli qatlamlari orasida toshga aylangan ko'plab o'simlik qoldiqlari, dinozavr umurtqalari va ikki xil, ya'ni ham oyquloq, ham o'pka bilan nafas oluvchi qiltanoqli baliqlar uchraydi. Bunday noyob topilmalardan ilmiy, o'quv-ma'rifiy va turistik maqsadlarda foydalanish mumkin.

Oqtuproq g'ori - So'x daryosi vodiysining o'ng sohilida G'aznov antiklinalining tektonik yoriqlar bilan murakkablashgan shimoliy yonbag'rida gipsli qatlamlarda karst hodisasidan hosil bo'lgan. Uning uzunligi 150 m, kengligi 10-40 m ga teng. G'ordan ilmiy, o'quv-ma'rifiy, turistik maqsadlarda foydalanish mumkin.

Devayron g'ori - So'x tumani Devayron qishlog'idan 4 km shimoli-g'arbida, paleozoy (quyi devon) ohaktoshlaridan tuzilgan gumbazsimon qoyada joylashgan. Uning umumiy uzunligi 103 m, og'zining kengligi 1,5 m, o'rtacha kengligi 3,6 m. G'orning ayrim joylari 6 metrgacha kengayadi. Umumiy maydoni 370 m², hajmi 1488 m³. G'orning og'zidan 10 m pastda qoya etagida buloq hosil bo'lgan. Devayron g'ori Farg'ona viloyati hududida joylashgan eng yirik karst g'oridir. Undan ilmiy, o'quv-ma'rifiy rekreatsiya va turizm maqsadlarida foydalanish mumkin.

“Markaziy Farg'ona” tabiat yodgorligining umumiy maydoni 142,5 gektar bo'lib, 122 gektarni o'rmonlar bilan qoplangan do'ng-marza qumlar, 14 gektarini

qamish, oqboosh, yulg'unlar o'sadigan qumlar orasidagi pastqamliklar, 6,5 gektarni sho'rxok erlar egallaydi. Hududda "Qizil kitob"ga kiritilgan Farg'ona chipor kaltakesagi, Shtraux qurbaqaboshi, echkiemar, to'stovuq, to'ng'iz, o'qilon va ko'rmailonlar muhofazaga olingan. Bu erdagi boy o'simlik va hayvonot olamidan ilmiy, o'quv-ma'rifiy, estetik va turizm maqsadlarida unumli foydalanish mumkin.

So'x darasi - O'zbekiston va Qirg'iziston Respublikalari o'rtasidagi davlat chegarasidan shimolga tomon Sarikanda va Qizilqiyoq qishloqlarigacha cho'zilgan So'xning chuqur va tor vodiysida joylashadi. Vodiya Qorato'qay va Tayan qishloqlari orasida daryo terrasalarining soni va nisbiy balandligi o'zgaradi. Daryo vodiysi ayrim joylarda 3-4 m ga torayadi. Bu xususiyatlar yangi tektonik harakatlarning faolligi bilan izohlanadi. Daryo suvi hozirgi vaqtda to'rtlamchi davr yotqiziqlarini ham yuvmoqda

Obshirsoy g'orlari - So'xning shimoliy-sharqida, paleozoy ohaktoshlari va slanetslaridan tuzilgan Haydarkon tog'ining janubiy yonbag'ri etaklarida joylashgan. U 5 dan ortiq g'orlar guruhidan tashkil topgan. G'orlar asosan karst hodisasi va qisman antropogen omil ta'siridan hosil bo'lgan. Ularning eni 8-26 m, balandligi 10-12 m ga boradi. G'orlardan mezolit, ya'ni o'rta tosh asri davriga oid arxeologik ashyolar: tosh, qadama pichoqlar, parmalar, bigizlar, qirg'ichlar va boshqalar topilgan. Ular qadimgi odamlarning yashash joylari bo'lgan.

Chashma bulog'i - So'x tumanida joylashgan bo'lib, tuzilishi doirasimon shaklli, diametri 20 metr, ko'ndalangi kesimi 7-8 metrdir. Buloq hovuzining maydoni 50 m²dan ortiq, chuqurligi 2-4 metr ga boradi. Buloq suvi juda tiniq va havorang bo'lib, juda mazaligi bilan ajralib turadi. U Obshirsoyning chap irmog'i bo'lgan Ko'lizardaksoyning vodiysida hosil bo'lgan.

Shohimardon hududi - respublikamiz aholisining, shuningdek chet ellik turistlarning sevimli dam olish maskanlaridan biri. Lekin hozirgi kunda tartibsiz dam olishlar, turli qurilishlar va xo'jalik faoliyati ta'sirida Shohimardon tabiati o'zining noyob tabiiy xususiyatlarini yo'qotib bormoqda. Uning tabiatidan sog'lomlashtirish, rekreatsiya, turizm va boshqa maqsadlarda foydalanish uchun qulay imkoniyatlar mavjud

“Satkak buloqlari” - (10 ga) Farg‘ona tumanida Satkak adirining shimoliy-sharqiy chekkasidagi qadimgi daryo o‘zanida joylashgan bo‘lib, 5 ta hovuzli qaynar buloqlar guruhi mavjud. Buloq suvlarini rangi to‘q tusli, tiniq va ta‘mi mazali. Ular er osti suvlarini Qopchug‘ay va Satkak adirlari tomonidan to‘silishidan hosil bo‘lgan.

“Arsif buloqlari” - so‘x konglomeratlaridan tashkil topgan Arsif antiklinal adirining shimoliy tik yonbag‘rida joylashgan. Siljiqlar bilan murakkablashgan. Eng ko‘p buloqlar siljiqqa yaqin joylarda kuzatiladi. Adir yuzasida shimilgan suvlar adirning shimoliy yonbag‘ri etagidagi yoriqlar bo‘yicha yuqoriga ko‘tarilib, ko‘plab buloqlarni hosil qilgan.

Sho‘rsuv adirlari. O‘zbekiston va Beshariq tumanlari janubiy qismidagi past tog‘larni, Achchiqsuv (Sho‘rsuv) daryosi va Sho‘rsuv suv omborining muhofaza zonalarini o‘z ichiga oladi. Bu hududda *Qiziltov (Qizilbel)*, *Gultatov*, *Ko‘ktov* va *Damyog‘di* g‘ori kabi oronimik ob‘ektlar uchraydi. Sho‘rsuv adirlari va uning janubidagi past tog‘lar viloyat hududida antropogen ta‘sir natijasida nisbatan kuchsiz o‘zgargan landshaftlar hisoblanadi. Bu erda iqlimning quruqligi (80-100 mm), daryo tarmoqlarining kuchsiz rivojlanganligi, nurash mahsulotlarining yirik skeletli va toshloqli bo‘lishi qiziqarli va noyob rel’ef shakllarining hosil bo‘lishiga olib kelgan.

Farg‘onani aziz, muqaddas, avliyolar va buyuk insonlar abadiy qo‘nim topgan joylardan biri sifatida e‘zozlashadi. Xalqimiz ulug‘ din ulamolari, buyuk kishilar, avliyolar qabristonlarni ziyorat etish, o‘tganlar ruhini shod etish maqsadida Farg‘ona shahri va uning tumanlaridagi ziyoratgohlarga tashrif buyurishadi va katta ma‘naviy va estetik kuch olishadi. Hozirgi kunda vodiylar aholisi asosan mustaqil ravishda (tur paketlardan foydalanmagan holda) ziyorat qilish maqsadida ziyoratgohlarga tashrif buyurishmoqda. Sayohatchilar soni va ularning atrof muhitga ta‘sirini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Vodiylarda diniy turizmni yanada rivojlantirish uchun muqaddas ziyoratgohlarni atroflicha o‘rganish va tavsiyalar ishlab chiqish talab etiladi.

Ahmad al-Fargʻoniy majmuasi (Fargʻona viloyati) - Majmua mustaqillik davrida - 1998 yilda bunyod etilgan. Abul Abbas ibn Muhammad ibn Kasir Ahmad al-Fargʻoniy 797 yili Fargʻona vodiysining Qubo (Quva) qishlogʻida tugʻilgan. Xalifa Horun ar-Rashidning sharqiy erlaridagi muovini, oʻgʻli Maʼmunning Marvdagi olimlari doirasiga kirgan. Ahmad al-Fargʻoniy nihoyatda mashhur olim boʻlib, asarlarining tarjimasi bir necha asrlar davomida hatto Evropa universitetlarida ham asosiy darslik sifatida qoʻllanilgan. Manbalarda Ahmad al-Fargʻoniy va uning 861 yilgi ixtirolari haqida koʻp gapiriladi. U ixtiro qilgan "Miqyos an-Nil " (Nil daryosi suvini oʻlchash) hozirgi kunda ham Misrning Qohira shahrida saqlanib qolgan. Vafoti taxminan 865-866 yillar, deb qabul qilingan.

Burxoniddin Margʻinoniy (ramziy) maqbarasi (Fargʻona viloyati) - Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov saʼy-harakatlari bilan allomaning ramziy maqbarasi 2000 yilda Rishton shahrida bunyod qilindi. Buyuk faqih Abul Hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil al-Fargʻoniy ar-Rishtoniy al-Margʻinoniy 1123 yilning 23 sentyabrida tugʻilgan. U Qurʻon, hadis va fiqh ilmini benihoya chuqur va mukammal egallagani va bu sohada beqiyos durdonalar yaratgani tufayli "Burhon ad-din val-milla" (Din va ummatning hujjati) degan nom olgan. 1178 yili yozgan "Al-Hidoya" asari fiqh boʻyicha eng aniq, izchil, mukammal asar sifatida butun Islom olamida hanafiy mazhabining fiqh masalalaridagi asosiy qoʻllanmasiga aylangan.

Xulosa Fargʻona viloyatida ekologik va ziyorat turizmini rivojlantirish uchun mustahkam asos mavjud boʻlib, bu viloyat iqtisodiyotining yangi drayveri boʻlishi mumkin. Viloyatning tabiiy landshaftlari, togʻ oldi hududlari, shifobaxsh suvlari va flora-faunasi ekoturizm uchun ulkan salohiyat yaratadi. Shu bilan birga, tarixiy Samarqand, Buxoro shaharlari bilan deyarli tengdosh boʻlgan Quva, Margʻilon kabi qadimiy maskanlardagi muqaddas qadamjolar, diniy-maʼnaviy obidalar ziyorat turizmining kelajagini belgilaydi. Ushbu salohiyatni toʻliq ishga solish uchun bir nechta choralar koʻrish zarur. Birinchidan, zamonaviy turistik infratuzilmani, jumladan, turar joylarni va transport logistikasini yaxshilash lozim. Ikkinchidan, yangi, oʻziga xos ekologik va ziyorat marshrutlarini ishlab chiqish va

ularni xalqaro bozorlarda faol targ'ib qilish muhim. Natijada, bu harakatlar orqali yangi ish o'rinlari yaratiladi, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati yaxshilanadi va Farg'ona viloyatining O'zbekiston turizm xaritasidagi o'rni mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulaxatov N. Ko'xna Marg'ilon ziyoratgohlari. "Farg'ona" nashriyoti, 2007.
2. Abdullaev U. Valixonova G. Farg'ona vodiysi aholisi: Etnik tarkibining shakllanishi va etnomadaniy munosabatlar tarixi. T.: Navroz, 2016.
3. Abdug'aniev O.I. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlvr tizimini tashkil etishning geoekologik jihatlari (farg'ona viloyati misolida). // Geogr. fan. nom. dissertatsiyasi. -Toshkent: 2008
4. Abdug'aniev O.I., X.Abdualiyev., Mahkamov E., Rekreatsiya va turizm geogtrafiyasi, Farg'ona 2015.
5. Axmedov X.I., Allaberganov A.A. Turizm faoliyatini tashkil etish. - Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti", 2004.
6. Ahmedov M.H., Oripov J.O., Zokirov I.I. Farg'ona vodiysining muhofazaga olingan hayvonlari. - Farg'ona, 2008.
7. Ibodullayev N.E, O'zbekistonning turistik resurslari. Samarqand-2008
8. Xoshimov M., O'zbekiston ekologik turizmi. Monografiya, Zarafshon nashriyoti-2009.
9. Matboboyev B.X., Mashrabov Z.Z, Andijon tarixi. "Sharq-nashriyot" matbaa, Toshkent-2014